

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida "Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha rektorlar forumi" bo'lib o'tdi

Mazkur nufuzli anjumanda respublika bo'yicha 200 dan ortiq oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari, sohaning yetakchi mutaxassisleri, mahalliy va xalqaro ekspertlar qatnashdilar. Jumladan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etdi.




Forum O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari Hilola Umarova va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irov Sharipovning kirish so'zlari bilan ochildi.



Shuningdek, tadbir davomida vazirning birinchi o'rinbosari Sardor Rajabov, Vazirlik huzuridagi Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori Alisher Abdullayev, Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktori Baxtiyor Yo'ldoshev, shuningdek, "Yangi O'zbekiston" universiteti prorektori Bahodir Ahmedovlar o'z ma'ruzalari bilan chiqish qilishdi.



Jarayonda ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari, ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning o'quv faoliyatini tahlil qilish, dars jarayonini individuallashtirish hamda akademik halollikni ta'minlash masalalari muhokama qilindi.



Forum o'z ishini panel sessiyalarda davom ettirarkan, unda oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt infratuzilmasini rivojlantirish, sun'iy intellekt savodxonligi: etik me'yorlar va amaliy ko'nikmalar hamda oliy ta'limda raqamli transformatsiyaga bag'ishlangan masalalar muhokama qilindi.

Forum yakunida ishtirokchilar sun'iy intellekt texnologiyalarini oliy ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish, tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashdilar.



Bundan tashqari forum ishtirokchilari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida ular katta bunyodkorlik loyihalari, shuningdek, yurtimiz sivilizatsiyasi taraqqiyotining turli

bosqichlarini, buyuk allomalar va ulamolarning boy ilmiy-ma'rifiy merosini zamonaviy muzey ekspozitsiyalari orqali aks ettiruvchi, kelajak avlodni ma'naviy kamolga chorlaydigan ushbu noyob ilmiy-ma'rifiy majmuaning mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishdilar.